UDK. 615.25.30.23

YURAK ISHEMIK KASALLIGIDA QO‘LLANILADIGAN DORI VOSITALARIGA TALAB KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH

Suyunov N. D., Alimova X. R., Ikramova G. M.
Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent, O‘zbekiston.

ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ СПРОСА ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА

Суюнов Н. Д., Алимова Х. Р., Икрамова Г. М.
Ташкентский фармацевтический институт, Ташкент, Узбекистан.

ASSESSMENT OF DEMAND INDICATORS FOR MEDICINES USED IN CORONARY HEART DISEASE

Suyunov N. D., Alimova Kh. R., Ikramova G. M.
Tashkent Pharmaceutical Institute, Tashkent, Uzbekistan.

Annotatsiya. *Farmasevtika bozoridagi yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalariga bo‘lgan talabni ekspert baholashga ko‘ra, bisoprolol xalqaro patentlanmagan nomdagi: “Bisoprolol”, 2,5 mg, № 30; “Bisoprolol”, 5 mg, № 30; “Bisoprol”, 5 mg, № 30; “Bisoprol”, 2,5 mg, № 30; “Bisoprolol”, 10 mg, № 30; “Bisoprol”, 10 mg, № 30 tabletkalar; amlodipin, valsartan xalqaro patentlanmagan nomdagi: “Valam” savdo nomdagi tabletkalar, 10 mg/160 mg, № 28 – 10 ball; “Valam”, 5 mg/160 mg, № 28; “Valodip”, 10 mg/160 mg, № 30; “Valodip”, 5 mg/ 80 mg, № 30 tabletkalariga doimiy ravishda talab yuqori ekanligi aniqlandi. Yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalariga bo‘lgan talabni ekspert baholashga ko‘ra, ularning talab ko‘rsatkichlari isbotlandi. Ilmiy izlanishlarda marketing tadqiqotlari asosida yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalariga bo‘lgan talab ko‘rsatkichi bo‘yicha baholash natijalari iste’molni optimallashtirish yo‘llari aniqlab berildi.*

Kalit so’zlar: *yurak ishemik kasalligi, xalqaro patentlanmagan nomi, dori preparatlari, talab, marketing, tahlil, assortiment, farmatsevtika bozori.*

Аннотация. *По данным экспертной оценки востребованности на фармацевтическом рынке лекарственных препаратов, применяемых при лечении ишемической болезни сердца, бисопролол, производимых под международным непатентованным наименованием: «Бисопролол», 2,5 мг, № 30; «Бисопролол», 5 мг, № 30; «Бисопрол», 5 мг, № 30; «Бисопрол», 2,5 мг, № 30; «Бисопролол», 10 мг, № 30; «Бисопрол», 10 мг, №30 таблеток; амлодипин, валсартан таблетки с международным непатентованным наименованием: торговое наименование «Валам», 10 мг/160 мг, № 28 – 10 баллов; «Валам», 5 мг/160 мг, № 28; «Валодип», 10 мг/160 мг, № 30; Установлено, что стабильно высоким спросом пользуется препарат «Валодип» - таблетки 5 мг/80 мг №30. По данным экспертной оценки спрос в лекарственных препаратах, применяемых при ишемической болезни сердца, показатели их востребованности доказаны. В научных исследованиях на основе маркетинговых исследований были использованы результаты оценки спроса на лекарственные препараты, применяемые при ишемической болезни сердца, для выявления путей оптимизации потребления.*

Ключевые слова: *ишемическая болезнь сердца, международное непатентованное наименование, лекарственные средства, спрос, маркетинг, анализ, ассортимент, фармацевтический рынок.*

Abstract. *According to the expert assessment of demand on the pharmaceutical market for medicinal products used in the treatment of ischemic heart disease, bisoprolol produced under the international non-proprietary name: "Bisoprolol", 2.5 mg, No. 30; "Bisoprol", 5 mg, No. 30; "Bisoprol", 5 mg, No. 30; "Bisoprol", 2.5 mg, No. 30; "Bisoprolol", 10 mg, No. 30; "Bisoprol", 10 mg, No. 30 tablets; amlodipine, valsartan tablets with the international nonproprietary name: trade name "Valam", 10 mg / 160 mg, No. 28 - 10 points; "Valam", 5 mg / 160 mg, No. 28; "Valodip", 10 mg / 160 mg, No. 30; It has been established that the drug "Valodip" tablets 5 mg / 80 mg No. 30 is in consistently high demand. According to the expert assessment, the demand for drugs used in ischemic heart disease, their demand indicators have been proven. In scientific studies based on marketing research, the results of the demand assessment for drugs used in ischemic heart disease were used to identify ways to optimize consumption.*

Key words: *ischemic heart disease, international nonproprietary name, drugs, demand, marketing, analysis, assortment, pharmaceutical market.*

Kirish. Yurak ishemik kasalligini kechishi, tarqalishi, turli tadqiqotlarda quyidagicha berilgan. Jumladan, stenokardiya, ko‘krak qafasidagi noqulaylik yoki og‘riq hissi bilan namoyon bo‘ladigan klinik sindrom bo‘lib, uning rivojlanishi miokardning kislorodga bo‘lgan talabi va uning koronar arteriyalar orqali yetkazib berilishi o‘rtasidagi nomuvofiqlik tufayli vaqtinchalik miokard ishemiyasi yurak ishemik kasalliklarining diagnostikasi, oldini olish, davolash, davolash, iqlim, sharoit bilan bog‘liq. Bu holat koronar arteriyalarning 50–70 %ga torayganida yuzaga keladi. O‘limga olib keluvchi asoratlar, to‘satdan o‘lim, miokard infarkti, yurak yetishmovchiligini oldini olish orqali hayot sifatini yaxshilash va bemorning umrini uzaytirish mumkin [1].

Oxirgi o‘n yillikda zamonaviy jamiyatning muhim tibbiy-ijtimoiy va iqtisodiy muammolari bu turli gormonal-metabolik buzilishlar yoki kasalliklar hisoblanadi. Chunki amaliy jihatdan ularning har biri yurak qon-tomir kasalliklarini rivojlanishi xavf omili bo‘lib, yurak ishemik kasalligi mavjud erkaklar orasida metabolik sindrom 10,8 % uchraydi.

Yurak ishemik kasalligi arterial gipertoniya bilan birga qo‘shilib kelgan bemorlarda yurak ishemik kasalligi bor, lekin arterial gipertoniyasi yo‘q bemorlarga nisbatan glikemiya, insulinemiya va lipidlar miqdori yuqori ekanligi

aniqlangan. Uglevod va lipid almashinuvi ko‘rsatkichlari anamnezida yurak ishemik kasalligi, miokard infarkti bo‘lgan bemorlarda yurak ishemik kasalligi miokard infarkti kuzatilmagan bemorlarga nisbatan yuqoriligi aniqlandi. Natijada tyekshirilgan erkaklarda eng ko‘p yog‘ komponenti rivojlangan samototip uchraydi [2].

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari fonida orttirilgan ikkilamchi yondosh gastroduodenal oshqozon yarasi juda ko‘p uchrashi, yetarli darajada o‘rganilmagan muammo hisoblanadi. Yurak ishemik kasalligi bo‘lgan bemorlarda eroziv gastroduodenal qon ketishining rivojlanishi ko‘pincha antiagregant yoki antikoagulyant dori vositalarini keragidan ortiq qo‘llash natijasida rivojlanadi. Turli mualliflarning fikriga ko‘ra, klopidogrel xalqaro patentlanmagan nomdagi dori vositalarini bemorlar bir xil dozalarini qabul qilishi oshqozon-ichakdan qon ketish xavfini 1,1, aspirinni qabul qilish 1,8, va ushbu ikki dori preparatining kombinatsiyasini birgalikda qabul qilish 7,4 baravar oshiradi [3].

Yurak ishemik kasalligi – bu yurakning o‘tkir yoki surunkali zararlanishi bo‘lib, miokardga qon yetkazilishining susayishi yoki to‘xtashi tufayli koronar tomirlarda yuzaga keladi. Ayrim hollarda tomirlarning toraygan stent kiritilib, ballon angioplastika yordamida kengaytiriladi. Ba’zan esa aortokoronar shuntlash operatsiyasi zarur bo‘ladi.

Yurak ishemik kasalligining hozirgi vaqtda patofiziologiya va patogenezi yetarlicha o‘rganilganligi, tezkor diagnostikaning zamonaviy va davolashning usullari rivojlanganligiga qaramasdan, ushbu kasallikdan o‘lim holatlari yuqoriligicha qolmokda. Yurak ishemik kasalligi natijasida o‘lim va nogironlik kabi holatlar ko‘payib bormokda. XX–XI asrlarda yurak qon-tomir kasalliklari aterosklerozi bilan bog‘liq asoratlar avvalgiday o‘lim sabablari va bemorlar ish qobiliyatini yo‘qotishi bilan kechib, afsuski hozirgacha birinchi o‘rinni egallab kelmoqda [4].

Yurak ishemik kasalligi dunyo tabobatida o‘limning eng keng tarqalgan sabablaridan biridir. Past xolesterin, yuqori zichlikdagi lipoprotein, yuqori qon bosimi va yuqori trigliseridlar yurak ishemik kasalligi uchun eng xavfli omillar sifatida qayd etilgan. Yurak ishemik kasalligi mavjud bemorlarda metabolik sindrom va uning tarkibiy qismlarini tashhislash kasallikning oldini olish, hamda davolash taktikasiga ta’sir qilishi mumkin. Metabolik sindrom bir nechta kardiometabolik xavf omillarini o‘z ichiga olib, to‘rtta asosiy komponent bilan tavsiflanadi, shu jumladan, semizlik, dislipidemiya, gipertenziya, glyukozaga bardoshlilik, II toifa qandli diabet hamda yurak-qon tomir kasalliklari xavfi ortishiga sabab bo‘ladi.

Dalillarga asoslangan tibbiyotda yurak ishemik kasalligi bo‘lgan koronar angiografiyadan o‘tgan bemorlarda metabolik sindrom va uning individual tarkibiy qismlarini tarqalishini o‘rganishga qaratilgan. Kyeksalik va harakatsiz turmush tarzi yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda metabolik sindromning rivojlanishi uchun muhim xavf omillari hisoblanadi.

Dislipidemiya, qorin bo‘shlig‘i semirishi va giperglikemiya yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishi uchun ko‘proq keng tarqalgan xavf omillari va kasallikning barcha tarkibiy qismlarining kombinatsiyasi bo‘lib, metabolik sindrom yurak-qon tomir asoratlarining rivojlanishiga yordam beradi [5].

Dori vositalariga talabni o‘rganish bo‘yicha marketing tadqiqotlarida quyidagicha tahlillar olib borilgan. Xususan, farmasevtika sanoatini xalq iste’moli tovarlarini ishlab chiqarishdan ajratib turuvchi asosiy xususiyat shundan iboratki, mahsulotni sotib olish to‘g‘risidagi qarorni nafaqat iste’molchi, balki shifokor yoki dorixona xodimi ham qabul qiladi. Shu sababli, iste’molchilarga ta’sir ko‘rsatadigan mutaxassislar bilan ishlash dori vositalarini reklama qilishning muhim qismiga aylandi.

Farmasevtika bozorida marketing o‘ziga xos xususiyatlarga ega: – sotib olish va sotishning klassik formulasi murakkab, chunki xaridor, bemor – sotuvchi, farmasevt tizimi uchinchi bo‘g‘inni o‘z ichiga oladi – talabning teng, ba’zan esa undan ham kattaroq generatori bo‘lgan shifokor, garchi u har doim ham sotib olishni nazorat qila olmaydi [6].

Farmasevtikada marketing faoliyatining ikkita shakllantiruvchi tizim yo‘nalishi mavjud.

1. Ishlab chiqarishni aholi ehtiyojini qondirishga yo‘naltirish.

2. Talabni shakllantirish va rag‘batlantirish.

Marketingning ushbu turi ham aholining so‘roviga javob berishga yordam beradi, ham o‘z-o‘zidan dori vositalariga bo‘lgan talabni shakllantiradi.

Farmasevtika marketingi oddiy marketingdan farq qiladi. Farmasevtika marketingida dori vositalarini sotib olish va sotish yanada murakkablashadi, chunki xaridor, bemor – sotuvchi, farmasevt tizimi uchinchi bo‘g‘inni – talabni teng yoki ko‘proq darajada aniqlaydigan shifokorni o‘z ichiga oladi. Farmasevtika bozori tahlilini o‘tkazishda nafaqat talabni, balki ehtiyojni ham hisobga olish kerak. Buning uchun ehtiyojni tahlil qilish va farmasevtika bozorini rivojlanishini prognozlash, talab, taklifni tahlil qilish, farmasevtika mahsulotlari va xizmatlariga talabni shakllantirishning samarali usullarini ishlab chiqish, aholiga farmasevtika xizmati ko‘rsatish sifatini oshirish zarur.

Dori vositalarini ishlab chiqarish rentabelligini oshiradigan rejalashtirish usullarini ishlab chiqish farmasevtika marketingining asosiy vazifalari hisoblanadi. Yana bir muhim farq – bu narx belgilashdir, talabni hisobga olgan holda bozor narxlarining korrelyasiyasiga emas, balki hukumat qaroriga asoslanadi. Sababi, milliy bozorda juda ko‘p raqobatchilar mavjud [7].

Statistika tahlili natijalariga ko‘ra, yakuniy iste’molchilarning to‘lovga layoqatli talabi, oraliq iste’molchilar, shifokorlar talabi va hududning iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflovchi o‘n beshta ko‘rsatkich tanlab olinib, uch guruhga tizimlashtirildi. Tegishli o‘rganilayotgan omillar guruhining umumiy qiymatini standartlashtirish usuli asosida aniqlandi.

Hozirgi vaqtda yuqoridagi usullar ilmiy izlanishlarda keng qo‘llanilmoqda. Va uning talablari dori vositalarini iste’mol qilish tarkibiga, dori vositalari bozorining rivojlanishi, ko‘lami va sig‘imi, talabning holati va turli xil bozor segmentlari tarkibiga ta’sirini aniqlash jarayonida miqdoriy salohiyatiga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy omillarning shakllangan majmuasida: demografik vaziyat; samarali talab mavjudligini belgilovchi aholi turmush darajasi muhim rol o‘ynaydi [8].

Yoshi va ortirilgan yondosh kasalliklar tufayli keksalar dori vositalarini eng faol xaridorlar guruhi hisoblanadi. Tabiiyki, keksalar qancha ko‘p bo‘lsa, dori vositalariga bo‘lgan ehtiyoj va talab shunchalik yuqori bo‘ladi [9].

Joylashtirish dasturining samaradorligini baholash uchun bir kalendar yil davomida chakana savdo ob’yektining tovar nomiga bo‘lgan axborot talabining o‘sish sur’ati baholandi. Axborotga bo‘lgan talabning o‘sish sur’ati ko‘rsatkichlari va onlayn joylashishni aniqlash siyosatini kengaytirishning taklif etilayotgan koeffisiyenti bo‘yicha tanlanmaga kiritilgan farmasevtika chakana savdo sub’yektlarini birgalikda taqsimlash natijalari bo‘yicha har bir sub’yekt turi bo‘yicha tavsiyalar shakllantirilgan [10].

Ko‘rib chiqilayotgan davrda nafas olish a’zolari kasalliklarini davolash uchun dori vositalarini sotishning

o‘rtacha o‘sish sur’ati qiymat ko‘rinishida 12,1 %ni, fizik jihatdan esa o‘rtacha o‘sish sur’ati – 0,2 %ni tashkil etdi. Ushbu dori vositalari guruhiga talab yuqoriligicha qolmoqda va farmasevtika bozoridagi umumiy vaziyatdan farqli o‘laroq, ushbu dori vositalari narxining oshishi tibiiy ravishda iste’mol hajmining biroz pasayishiga olib keldi. Biroq, talab kuchliligicha qolsa-da, bu bozor segmenti yil davomida kuchli mavsumiy tebranishlar bilan tavsiflanadi. Yillik davr ichida doimiy ravishda takrorlanadigan talab va taklif tebranishlari mavsumiylik deb ataladi.

Kontentni joylashtirishni asoslash uchun bozor talabidagi o‘zgarishlarni doimiy ravishda tahlil qilish kerak. Shunday qilib, farmasevtika bozorida media strategiyasini ishlab chiqish uchun talabning mavsumiyligini va raqamli reklama vositalaridan foydalanishni hisobga olgan holda tahlil qilish, hamda eng dolzarb yondashuvni tanlash kerak [11].

Ilmiy izlanishlarda marketingning roli talabni shakllantirish va rag‘batlantirish, iste’molchilar ehtiyojini o‘rganish va tovar, hamda xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarni ularga yo‘naltirishdan iboratdir.

Iste’molchilarning dori vositalariga bo‘lgan talab o‘sishining marketing kompleksidan foydalanishga va farmasevtika xizmatlari samaradorligini oshirishga funksional bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Mintaqadagi farmasevtika mahsulotlarini xizmatlari infratuzilmasida distribьyutor, maslahatchining roli aniqlanadi va o‘rganilayotgan sohada intellektual kapitalning ta’siri ko‘rib chiqiladi. Farmasevtika faoliyatida tarmoqlararo dori vositalariga qondirilmagan talab miqdorini aniqlash metodologiyasi dori vositalariga qondirilmagan talabning axborot resursini shakllantirish mavjud [12].

Tibbiyotda eng dolzarb muammolardan biri yurak ishemik kasalligini davolash jarayonini va dori vositalari bilan ta’minlashni to‘g‘ri tashkil etishdir. Yurak ishemik kasalligi mavjud bemorlarni davolash, kasallikda qo‘llaniladigan dori vositalarini marketingi bo‘yicha talabni o‘rganish shu kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagilarga asoslanib, yurak ishemik kasalligini dori vositalari bilan ta’minlashda aholi va davolash-profilaktika muassasalarining mablag‘idan samarali foydalanish, dori vositalari guruhlarini talabga asosan iste’molni rivojlantirishni tavsiya etish zarurati vujudga keladi.

Tadqiqot ob’yekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, hamda yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalarining assortimenti va talabi olindi.

Tadqiqot maqsadi: yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalarini marketing tahlil qilish bo‘yicha nomenklaturasini va talabni o‘rganish, baholash, ma’lumotlarni intellektual usulda qayta ishlash, hamda ta’minotni takomillashtirishdan iborat.

Material va metodlar: Iste’molchilarni yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalariga talab bo‘yicha qo‘yilgan ballarni qayta ishlash [13], dori vositalarini iste’molini rivojlantirishni qiyosiy, guruhlash va fikr mulohaza qilish, statistika ma’lumotlarini intellektual taxlil usullarida qayta ishlandi.

Yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalariga bo‘lgan talabni ekspert baholash uchun dori vositalarining savdo nomi, dori shakli va dozasi, xalqaro patentlanmagan nomi bo‘yicha anketa-so‘rovnoma tayyorlanib, shifokorlar uchun ballarda baholash bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Dori vositalariga bo‘lgan talabni guruhlar shkalasi bo‘yicha baholash uchun 1 – (0–5,6), 2 – (5,6–7,1), 3 – (7,1–8,6), 4 – (8,6–10] ballarga ajratilib, hisob-kitob qilishda intellektual usulidan foydalanildi.

Olingan natijalar: Yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalariga bo‘lgan talabni o‘rganish uchun Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida 26 nafar shifokor-kardiologlar bilan anketa-so‘rovnoma o‘tkazildi. Anketa-so‘rovnomada yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalariga talab 10 balli tizimda baholandi. Ilmiy izlanishlarda qo‘yilgan baholar intellektual tahlil usullarida qayta ishlandi. Yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalariga talab to‘rtta shkalaga ajratildi.

Yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan amlodipin, bisoprolol dori vositalarining doimiy ravishda talab qilinishini ekspert baholari dori vositalarining savdo nomi va dori shakli, xalqaro patentlanmagan nomi, dori vositasining mavjud yoki yo‘qligi (1–10 ball) shkala bo‘yicha baholandi. O‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalariga bo‘lgan talab yuqori.

Jadvallarda yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan amlodipin, bisoprolol xalqaro patentlanmagan nomdagi dori vositalarining doimiy ravishda talab qilinishini ekspert baholari dori vositalarining savdo nomi va dori shakli, dori vositalari mavjud yoki yo‘qligi, (1–10 ball), doimiy ravishda talab qilinadigan dori vositalari berilgan.

Jumladan, 1-jadvalda tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, yurak ishemik kasalligini davolashda qo‘llaniladigan dori vositalarining xalqaro patentlanmagan nomlari va savdo nomlari bo‘yicha 32 ta dori preparatlaridan 5 tasiga yuqori talab, 3 tasiga talab yetarli, 24 tasiga past talab, 2 tasiga talab mavjud emasligi keltirilgan.

Yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan amlodipin, bisoprolol xalqaro patentlanmagan nomdagi dori vositalarining doimiy ravishda talab qilinishini ekspert baholari

1-jadval

T/r	Xalqaro patentlanmagan nomi	Dori vositalarining savdo nomi va dori shakli	Talabning o‘rtacha ballari
1	Amlodipin	Adipin, tabletkalar, 10 mg, № 30	10
2		Adipin, tabletkalar, 5 mg, № 30	7,5
3		Normodipin, tabletkalar, 10 mg, № 30	7,5
4		Kardilopin, tabletkalar, 10 mg, № 30	5,5
5		Kardilopin, tabletkalar, 5 mg, № 30	5,5
6		Koronim, tabletkalar, 10 mg, № 30	5,5
7		Amadey, tabletkalar, 10 mg, № 30	5
8		Amadey, tabletkalar, 5 mg, № 30	5
9		Amlodipin, tabletkalar, 10 mg, № 30	5

10		Amlodipin, tabletkalar, 5 mg, № 30	5
11		Amloks, tabletkalar, 10 mg, № 30	5
12		Amlonon, tabletkalar, 5 mg, № 30	5
13		Amlorus, tabletkalar, 10 mg, № 30	5
14		Amlorus, tabletkalar, 2,5 mg, № 30	5
15		Amlorus, tabletkalar, 5 mg, № 30	5
16		Amlomaks, tabletkalar, 10 mg, № 30	2
17		Amlosil, tabletkalar, 10 mg, № 30	2
18		Tenzal, tabletkalar, 10 mg, № 30	10
19	Amlodipin, bisoprolol	Alotendin, tabletkalar, 10 mg/10 mg, № 30	2
20		Alotendin, tabletkalar, 5 mg/10 mg, № 30	–
21	Amlodipin, valsartan	Valam, tabletkalar, 10 mg/160 mg, № 28	10
22		Valam, tabletkalar, 5 mg/160 mg, № 28	10
23		Valodip, tabletkalar, 10 mg/160 mg, № 30	10
24		Valodip, tabletkalar, 5 mg/80 mg, № 30	8,7
25		Difors, tabletkalar, 5 mg/160 mg, № 30	6
26		Valsam, tabletkalar, 10 mg/160 mg, № 30	5,5
27		Valsam, tabletkalar, 5 mg/320 mg, № 30	3,5
28		Aklodip plyus, tabletkalar, 5 mg/50 mg, № 30	2
29		Amlosartan, tabletkalar, 10 mg/160 mg, № 30	2
30		Amlosartan, tabletkalar, 5 mg/80 mg, № 30	2
31		Valun, tabletkalar, 10 mg/160 mg, № 28	2
32		Difors XL, tabletkalar, 10 mg/160 mg, № 30	–

2 jadvalda yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalarining xalqaro patentlanmagan nomlari va savdo nomlari bo‘yicha doimiy ravishda talab qilinishini ekspert baholari 19 tasi dori preparatlaridan 9 tasiga yuqori talab, 2 tasiga talab yetarli, 2 tasiga o‘rtacha talab, 6 tasiga past talab bo‘lgani ilmiy asoslandi.

Dori vositalarining xalqaro patentlanmagan va savdo nomlari bo‘yicha doimiy ravishda talab qilinishini ekspert baholari

2-jadval

T/r	Dori vositalarining savdo nomi va dori shakli	Talabning o‘rtacha ballari	Talabning o‘rtacha ballari
1	Amlodipin, valsartan, gidroxlorotiazid	Ko-Valodip, tabletkalar, 10 mg/160 mg/12,5 mg, № 30	7,5
2	Amlodipin, indapamid	Indorem, tabletkalar, 5 mg/1,25 mg, № 30	5,5
3	Amlodipin, lizinopril	Ekvator, tabletkalar, 20 mg/5 mg, № 30	9
4		Amlipin, tabletkalar, 5 mg/5 mg, № 30	5
5		Adipril, tabletkalar, 5 mg/10 mg, № 30	3,5
6		Ekvapril, tabletkalar, 10 mg/5 mg, № 30	2
7	Amlodipin, perindopril arginin	Amradipin, tabletkalar, 4 mg/10 mg, № 30	10
8		Amradipin, tabletkalar, 8 mg/10 mg, № 30	10
9		Prestans, tabletkalar, 10 mg/10 mg, № 30	10
10		Prestozek Kombi, tabletkalar, 4 mg/10 mg, № 30	10
11		Prestans, tabletkalar, 5 mg/10 mg, № 30	8,3
12		Amlessa, tabletkalar, 4 mg/5 mg, № 30	6,7
13		Peram, tabletkalar, 4 mg/5 mg, № 30	1,5
14	Amlodipin, perindopril arginin, indapamid	Trimeik, tabletkalar, 8 mg/2,5 mg/5 mg, № 30	10
15		Tripliksam, tabletkalar, 10 mg/2,5 mg/10 mg, № 30	10
16		Tripliksam, tabletkalar, 5 mg/1,25 mg/10 mg, № 30	9
17		Trimeik, tabletkalar, 4 mg/1,25 mg /10 mg, № 30	7,3
18		Ko-amlessa, tabletkalar, 4 mg/10 mg/1,25 mg, № 30	7
19		Ko-amlessa, tabletkalar, 8 mg/10 mg/2,5 mg, № 30	5,3

3-jadvalda yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan amlodipin, lizinopril, valsartan, gidroxlorotiazid amlodipin, perindopril, arginin, indapamid xalqaro patentlanmagan nomdagi dori vositalarining doimiy ravishda talab qilinishini ekspert baholari 44 ta savdo nomidagi dori preparatalaridan 14 tasiga yuqori talab, 3 tasiga talab yetarli, 7 tasiga o‘rtacha talab, 9 tasiga past talab, 6 tasiga talab mavjud bo‘lmagan.

Dori vositalari doimiy ravishda talab qilinishini ekspert baholari

3-jadval

T/r	Xalqaro patentlanmagan nomi	Dori vositalarining savdo nomi va dori shakli	Talabning o‘rtacha ballari
1	Atenolol	Atenolol, tabletkalar, 100 mg, № 30	1,5
2	Atenolol, amlodipin	Dablech, tabletkalar, 50 mg/5 mg, № 30	–
3	Bisoprolol	Bisoprol, tabletkalar, 10 mg, № 30	10
4		Bisoprol, tabletkalar, 2,5 mg, № 30	10
5		Bisoprol, tabletkalar, 5 mg, № 30	10
6		Bisoprolol, tabletkalar, 10 mg, № 30	10
7		Bisoprolol, tabletkalar, 2,5 mg, № 30	10
8		Bisoprolol, tabletkalar, 5 mg, № 30	10
9		Kardioritm, tabletkalar, 2,5 mg, № 30	10
10		Emkor, tabletkalar, 10 mg, № 30	10
11		Emkor, tabletkalar, 2,5 mg, № 30	10
12		Bidop, tabletkalar, 2,5 mg, № 28	9,5
13		Bidop, tabletkalar, 5 mg, № 28	9,5
14		Bisoteksa, tabletkalar, 5 mg, № 30	9
15		Konkor Kor, tabletkalar, 2,5 mg, № 30	8,3
16		Konkor, tabletkalar, 5 mg, № 30	8,3
17		Bidop, tabletkalar, 10 mg, № 28	8
18		Bisoteksa, tabletkalar, 10 mg, № 30	8
19		Kardioritm, tabletkalar, 5 mg, № 30	8
20		Bisomor, tabletkalar, 5 mg, № 30	7,5
21		Konkor, tabletkalar, 10 mg, № 30	7,5
22		Bisomor tabletkalar, 2,5 mg, № 30	7
23		Niperten, tabletkalar, 2,5 mg, № 30	7
24		Bisokar, tabletkalar, 5 mg, № 30	6
25		Bisomor, tabletkalar, 10 mg, № 30	5,5
26		Niperten, tabletkalar, 10 mg, № 30	5,5
27		Niperten, tabletkalar, 5 mg, № 30	5,5
28		Rizoprol, tabletkalar, 5 mg, № 30	4
29		Belandj, tabletkalar, 2,5 mg, № 30	2,5
30		Belandj, tabletkalar, 5 mg, № 30	2,5
31		Bisokar, tabletkalar, 2,5 mg, № 30	–
32		Bisorol, tabletkalar, 5 mg, № 30	–
33		Bisorol, tabletkalar, 5 mg, № 30	–
34	Bisoprolol, perindopril arginin	Prestilol, tabletkalar, 5 mg/10 mg, № 30	10
35	Verapamil	Verapamil gidroxlorid, 0,25 %, 2 ml, № 10	7
36	Metoprolol	Metokard SR, tabletkalar, 47,5 mg, № 28	10
37		Egilok, tabletkalar, 25 mg, № 60	6,7
38		Betalok ZOK, tabletkalar, 100 mg, № 30	5,7
39		Egilok, tabletkalar, 100 mg, № 60	5
40		Egilok, tabletkalar, 50 mg, № 60	5
41	Nifedipin	Nifedipin, tabletkalar, 10 mg, № 50	7
42		Farmadipin, flakonda ichish uchun tomchi, 2 %, 25 ml	6
43	Propranolol	Anaprilin, tabletkalar, 0,04 g, № 10	–
44		Anaprilin, tabletkalar, 0,04 g, № 50	–

Yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan atenolol, amlodipin bisoprolol, perindopril arginin xalqaro patentlanmagan nomdagi dori vositalarining doimiy ravishda talab qilinishi shifokor-ekspertlar tomonidan baholanmadi.

Amlodipin, perindopril arginin xalqaro patentlanmagan nomdagi: “Amradipin”, 4 mg/10 mg, № 30 – 10 ball; “Amradipin”, 8 mg /10 mg, № 30; “Prestans”, 10 mg/10 mg, № 30; “Prestozek Kombi”, 4 mg/10 mg, № 30 tabletkalar; amlodipin, perindopril arginin, indapamid xalqaro patentlanmagan nomdagi: “Trimeik”, 8 mg/2,5 mg /5 mg № 30; “Tripliksam”, 10 mg /2,5 mg, /10 mg, № 30; “Tripliksam”, 5 mg /1,25 mg, /10 mg № 30 tabletkalari doimiy ravishda talab qilinishi yuqori bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalariga bo‘lgan talab ko‘rsatkichlarini marketing usullari asosida aniqlanib, natijalar olindi. Bunda: 95 ta dori vositalaridan 33 tasiga yuqori talab, 8 tasiga talab yetarli, 9 tasiga o‘rtacha talab, 39 tasiga past talab bo‘lgani, 6 tasi shifokor-ekspertlar tomonidan baholanmaganligi aniqlandi. Dori vositalariga bo‘lgan talab ko‘rsatkichlariga asoslanib, yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalarini ishlab chiqarishdan to bemorlargacha bo‘lgan ta’minot jarayonini optimallashtirish imkoniyati yaratildi.

Xulosa

1. Yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan amlodipin, lizinopril, amlodipin, perindopril arginin, indapamid dori vositalarining talabni ekspert baholash bo‘yicha asosiy masalalari yoritildi.

2. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, yurak ishemik kasalligini davolashda qo‘llaniladigan 95 ta savdo nomidagi dori vositalaridan 33 tasiga yuqori talab, 8 tasiga talab yetarli, 9 tasiga o‘rtacha talab, 39 tasiga past, 6 tasiga talab mavjud emasligi ilmiy asoslandi.

3. Bisoprolol xalqaro patentlanmagan nomdagi: “Bisoprol”, 10 mg, № 30; “Bisoprol”, 2,5 mg, № 30; “Bisoprol”, 5 mg, № 30; “Bisoprolol”, 10 ;mg, № 30; “Bisoprolol”, 2,5 mg, № 30; “Bisoprolol”, 5 mg, № 30; “Kardioritm”, 2,5 mg, № 30; “Emkor”, 10 mg, № 30; “Emkor”, 2,5 mg, № 30; “Bidop”, 2,5 mg, № 28; “Bidop”, 5 mg, № 28; “Bisoteksa” 5 mg, № 30 tabletkalar; amlodipin xalqaro patentlanmagan nomdagi “Adipin” tabletkalar, 10 mg, № 30, “Tenzal” tabletkalar, 10 mg, № 30 doimiy ravishda talab qilinishi yuqori ekanligi asoslandi.

4. Yurak ishemik kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalarining talab bo‘yicha iste’molini tartibga solishni takomillashtirish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergashov B. K. Yurak ishemik kasalligi stenokardiyani davolashning zamonaviy tamoyillari // Образование наука и инновационные идеи в мире. Выпуск журнала. – № 38. Часть 6. Февраль. – 2024. 3-11-b.

2. Jurayeva H. I., Tog`aydullaeva D.D. Erkaklarda yurak ishemik kasalligining kechishida metabolik sindrom komponentlarining ta’siri // Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya. Jild: 01. Nashr: 04. 2022. 29–34-b.

3. Yarmatov S. T., Xusainova M. A. Yurak ishemik kasalligi mavjud bo’lgan bemorlarda eroziv-yarali gastroduodenal qon ketishning oldini olish // Scientific Progress Volume. 2. – 2021. Uzbekistan. Page 785-791. ww.scientificprogress.uz.

4. Максудов О. М., Атаханова Н.С. Оценка состояния липидного спектра крови у больных с ишемической болезнью сердца // Re-health journal. – Андижан, Республика Узбекистан. – № 4, 2020. 65-69-б.

5. Ташкнбаева Э. Н., Абдиева Г. А., Хайдарова Д. Д., Саидов М. А., Юсупова М. Ф. Распространенность метаболического синдрома у пациентов с ишемической болезнью сердца // Журнал кардиореспираторных исследований. – Самарканд, Республика Узбекистан. Journal of cardiorespiratory research. – 2021. – № 1.– С. 85-88.

6. Кириллова Т. К., Якобсон Ю. А. Особенности фармацевтического маркетинга // Вестник алтайской академии экономики и права. Экономические науки. Иркутск, Российская Федерация, 2018. – № 6. – С. 83-90.

7. Брель А.К., Танкабекян Н.А., Складановская Н.Н., Жогло Е.Н., Халуллина А.С., Кагарманова Ю.Р. Обзор и поиск оптимальных регуляторов развития фармацевтического рынка в России // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. Медицинские науки. – Волгоград, Российская Федерация, 2019. – № 12. – С. 65-70.

8. Дрёмова Н.Б., Бушина Н.С. Исследование влияния социально-экономических факторов на развитие количественного потенциала регионального фармацевтического рынка // Фундаментальные исследования. – Курск, Российская Федерация, 2014. – № 12. – С. 779-783.

9. Волненко В. Н. Маркетинговая деятельность в системе управления фармацевтическим предприятием (на примере сети аптек «Апрель») // Практический маркетинг. – Белгород, Российская Федерация, 2022. – № 4 (301). – С. 10-16.

10. Канторович А.Я., Петров А.Л., Андрианова Г.Н. Методический подход к маркетинговой оценке эффективности онлайн-позиционирования аптечных сетей в Уральском Федеральном округе // “Медико-фармацевтический журнал "Пульс". – Ураль, Российская Федерация, 2020. –№ Vol. 22. N 1. – С. 39-46.

11. Изакова Н.Б., Агафонова И.В., Акберов К.Ч., Скорняков Д. М. Управление рекламными бюджетами с учетом сезонности спроса на медицинские препараты // Вестник Академии знаний. – Ураль, Российская Федерация, 2024. – № 5 (64). – С. 198-200.

12. Митрошкина Л. Н., Мордовченков Н. В., Панина Е. В., Тихомиров Г. А. Оздействие маркетинга и рекламы на эффективность фармдистрибьюторских услуг: инфраструктурно-консалтинговый аспект // Экономика и управление народным хозяйством. – Нижний Новгород, Российская Федерация, 2024. – № 5 (64). – С. 59-67.

13. Суюнов Н.Д. Фармакоэкономические исследования лекарственного обеспечения хронической обструктивной болезни легких в Узбекистане // Пульмонология. – Москва, 2011. – № 3. – С. 64–69.